Yuqorida berilgan sxemalar bo‘yicha to‘p o‘yinga kiritilganda uni qabul qilishda voleybolchilarning maydondagi joylashuvlari to‘g‘risida faqat taxminan fikr yuritish mumkin, chunki sxemalarni ta’riflashda mualliflar har bir to‘pni qabul qilish zonasida o‘yinchilar joylashishining aniq koordinatalarini ko‘rsatib o‘tmaganlar. Biroq shuni ko‘rsatib o‘tish lozim edi, chunki mutaxassislar va murabbiylar, shuningdek, sportchilar orasida shu masala borasidan jiddiy ziddiyatlar mavjud.

Ba’zi mualliflarda kiritilayotgan to‘pni qabul qilishda o‘ynash chog‘ida voleybolchilarning joylashuviga doir alohida tavsiyalar uchraydi. Masalan, A.V.Ivoylov (1979) shunday fikrdaki, o‘yinchilar to‘rdan 3,5-5 m uzoqlikda bir chiziq bo‘lib joylashishlari maqsadga muvofiq. Y.D.Jeleznyak (1991) to‘p o‘yinga kiritilayotganda o‘yinchilarning to‘rdan 5–6 m uzoqlikda joylashishlari maqsadga muvofiq ekanligini e’tirof etishadi. Lekin bunda shunga o‘xshash noaniq tavsiyalar ham mavjud: “yaqinroq yoki uzoqroq siljishlar”, “o‘yinchilar orqaga chekinadilar” va h.k. Y.D.Jeleznyak tavsiyalaridan ham taxminiy xususiyatga ega: “to‘pdan biroz uzoqroq”. Y.N.Kleshevda ham shunday tavsiyalar uchraydi: ...“orqaga o‘tib olish va to‘pdan 7–8 m masofada joy egallash”. Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarda biz to‘pni qabul qilayotgan o‘yinchilar uchun to‘rdan aniq bir masofada turish to‘g‘risida tavsiyalarni ko‘ramiz. Biroq qo‘llanmalarning hech birida yon chiziqlardan qancha masofada uzoqlikda turish ko‘rsatib o‘tilmagan.

Xulosa va takliflar. E’tirof etish joizki, maxsus adabiyotlarda biz o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishni bajaradigan o‘yinchilar soniga tegishli ma’lumotlar yuzasidan turli xil mualliflarning fikr-mulohazalarida farq borligini ko‘rmadik. A.V.Ivoylov (1979) shunday joylashuvni taklif qiladiki, bunda barcha oltita o‘yinchi uch metrli chiziq ortida turishadi. Y.D.Jeleznyak (1991) quyidagi joylashuvlarni qarab chiqamiz: 1) oltita o‘yinchi uch metrli chiziq ortida; 2) xuddi shunday, lekin 6-zona o‘yinchisi orqa chiziqdan 1,5 m narida turadi. Bunda ushbu qo‘llanmada o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishni takomillashtirish uchun mashqlar keltirilgan. Besh kishi to‘pni qabul qilishda va bitta holatda to‘rt kishi to‘p qabul qilishda ishtirok etadi. M.E.Amalin (1976) shunday fikr bildiradiki, to‘pni qabul qilishda besh yoki olti o‘yinchi ishtirok etishi kerak. Y.D.Jeleznyak (1991) besh va to‘rt himoyachi uchun joylashuvni taklif etadi, shuningdek, faqat bir holatdagina uch kishi uchun himoyaviy joylashuvni taklif qiladi.

Tahlil qilingan maxsus ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlar hamda yuqori malakali voleybolchi qizlar musobaqa faoliyatini pedagogik kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, voleybolda o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish samaradorligini oshirish muammosi hozirgi zamon voleyboli uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, to‘p kiritishning tezligi, kuchi, aniqligi va xilma-xilligining ortib borishi, shuningdek sakrab kuchli to‘p kiritishlarning keng qo‘llanilishi mazkur muammoning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–274-qarori. http://lex.uz

(2). Ивойлов А.В. Тактическая подготовка волейболистов. М., “Физкультура и спорт”, 1979, 112 с.

(3). Железняк Ю.Д., Ивойлов А.В. Волейбол. Учебник для институтов физической культуры, М., “Физкультура и спорт”, 1991, 239 с.

(4). Клещев Ю.Н., Л.Р.Айрапетьянц, В.Л.Паткин. Волейбол. Книга тренера. Часть первая. Ташкент, 1995, 188 с.

(5). Айрапетьянц Л.Р. Развитие и положительное использование научного и технического потенциала. “Фан–спортга”, Ташкент, 2004, №1, с. 17–20.

(6). Амалин М.Е. Тактика волейбола. М., “ФиС”, 1976, с. 46.

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich (Qo‘qon universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); l.m.abdunazarov.kokanduni.uz)

URBANIZATSION TARAQQIYOTDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonining ekologik oqibatlari va bu sharoitda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Urbanizatsiya aholining shaharlarga ko‘chishi, infratuzilmaning kengayishi va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishi bilan birga, havo va suv ifloslanishi, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik tahdidlarni yuzaga keltiradi. Maqolada ekologik madaniyat insonning tabiat bilan hamjihatligi, resurslardan oqilona foydalanishi va ekologik mas’uliyati sifatida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, borliq, infratuzilma, migratsiya, havo ifloslanishi, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillik, “aqlli shahar”, innovatsiya, yashil zonalar, ekologik ta’lim, Yangi O‘zbekiston.*

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ УРБАНИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ экологических последствий процесса урбанизации в Новом Узбекистане и важности развития экологической культуры в этом контексте. Урбанизация, наряду с миграцией населения в города, расширением инфраструктуры и ускорением экономического развития, создает такие экологические угрозы, как загрязнение воздуха и воды, деградация земель и сокращение биоразнообразия. В статье экологическая культура описывается как гармония человека с природой, рациональное использование ресурсов и экологическая ответственность.*

Ключевые слова: *урбанизация, экологическая культура, устойчивое развитие, существование, инфраструктура, миграция, загрязнение воздуха, деградация земель, биоразнообразие, «умный город», инновации, зеленые зоны, экологическое образование, Новый Узбекистан.*

THE NEED FOR DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN URBANIZATION DEVELOPMENT

Annotation. *This article provides a scientific analysis of the environmental consequences of urbanizatsion in New Uzbekistan and the importance of developing environmental awareness in this context. Urbanization, along with population migration to cities, infrastructure expansion, and accelerated economic development, creates environmental threats such as air and water pollution, land degradation, and biodiversity loss. The article describes environmental awareness as human harmony with nature, rational use of resources, and environmental responsibility.*

Keywords: *urbanization, environmental awareness, sustainable development, existence, infrastructure, migration, air pollution, land degradation, biodiversity, smart city, innovation, green spaces, environmental education, New Uzbekistan.*

Kirish. Urbanizatsiya bu aholi va iqtisodiy faoliyatning shaharlarga ko‘chishi, shahar infratuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning urban muhitga integratsiyalanishi jarayonidir. Shu bilan birga, urbanizatsiya bu faqat aholi ko‘chishi va shahar infratuzilmasini rivojlantirish emas, balki insonning jamiyat va tabiat bilan munosabatini qayta tartibga solish jarayonidir. Bu kabi holatda urbanizatsiya atrof-muhitga bosimni ham kuchaytiradi. Shaharlar taraqqiy etadi va shu bilan birga, atmosfera, suv, yer resurslari va chiqindi muammolari tahdidi yuzaga keladi. Buning oldini olish uchun esa ekologik madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyat insonning tabiat bilan munosabatini tartibga solish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish qobiliyatidir. Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki insonning hayoti sifati va barqaror taraqqiyotni ta’minlash uchun ham zarur. Bu o‘rinda bugun erishilgan bir qator yutuqlarning zamirida yoshlarning ekologik bilimlarni egallashi va ekologik madaniyatining oshirib borish katta rol o‘ynadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Darhaqiqat, ta’lim tizimidagi izchil islohotlar o‘qitish sifati va mazmunini yuksaltiribgina qolmay, talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ekologik me’yorlarni bilish yosh avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi” [2;195-b.]. Shunday ekan, boshlangan ishlarni davom ettirishimiz va yanada rivojlantirishimiz zarur. Ta’kidlash joizki, zamonaviy urbanizatsiyada ekologik madaniyat inson hayoti sifati va barqaror taraqqiyotning asosiy omiliga aylandi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Moreno R. va Lopez-Bazo E. infratuzilma va regional ta’sirlarni tahlil qilib, shahar rivojlanishida transport samaradorligini ko‘rsatadi. Morgunov va Mamayev shahar sifatini aholi nuqtai nazaridan o‘rganadi, Shvesov urbanistik polyarizatsiyani muhokama qiladi. Maqolada analiz, sintez, qiyosiy tahlil, tarixiylik, obyektivlik, tizimli yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ekologik madaniyat insonning atrof-muhit bilan bog‘liqligini, resurslardan oqilona foydalanishini va tabiatni muhofaza qilishni o‘z ichiga oladi. Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish aholi sog‘lig‘i, barqaror iqtisodiyot va ma’naviy taraqqiyot uchun muhim. Shaharlar taraqqiyoti aholi uchun qulay hayot muhiti yaratadi, ammo ular ko‘plab ekologik tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Transport, sanoat korxonalari va ko‘p qavatli uy-joylar havo ifloslanishi, shuningdek, suv va yer resurslariga bosimni kuchaytiradi.

Ekologik madaniya bu insonning atrof-muhit bilan bog‘liqligi, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishi, ekologik qoidalarni rioya qilishi va yashash muhiti sifatiga e’tibor berishi qobiliyatidir. Falsafiy jihatdan ekologik madaniyat insonning tabiat bilan hamjihatligi, ma’naviy va axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liq. Urbanizatsiyada ekologik madaniyat – bu shaxsning nafaqat shaxsiy, balki jamoatchilik va global darajada mas’uliyatini o‘z ichiga oladi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish urbanizatsiya jarayonida atrof-muhitni

muhofaza qiladi, sog‘lom hayot muhitini ta’minlaydi, qulay yashash muhitini shakllantiradi, barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

E’tirof etish zarur, shaharlarni rivojlantirishda va aholini yetarli shahar qulayliklari bilan ta’minlashda muhandislik infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi va uning sifatini yanada oshirish urbanizatsiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ya’ni, qator tadqiqotlarni ifodalashicha [3;26-42-b.] urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi mavjud muhit va shart-sharoitga bog‘liq. Shaharlar infratuzilmasi va ekologik holatni tahlil etar ekanmiz Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona shaharlarida urbanizatsiya tez sur’atlarda rivojlanayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur shaharlar aholisining ko‘payishi va infratuzilmadagi kamchiliklar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda havo sifati pasayishi, suv resurslariga bosim, yoshlar va aholi uchun yashash muhitining sifatsizligi paydo bo‘lmoqda. Ba’zi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, “muhandislik infratuzilmasi hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari ham kishilar turmush darajasiga, shaharlar rivojlanishiga o‘zining ijobiy bog‘liqligini ifodalagan” [1;47–71-b.]. Ammo bugungi kunda yuqoridagi ta’kidlaganimizdek, muhandislik infratuzilmalaridagi kamchiliklar zudlik bilan bartaraf etish zaruratini keltirib chiqargan. Ya’ni, bu kabi kamchiliklar mas’ullar va aholidagi ekologik madaniyat yetishmasligi oqibatidir desak, noto‘g‘ri bo‘lmasa kerak.

Urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatni oshirishning zaruratini qishloqdan shaharga bo‘ladigan migratsiya ham ifodalaydi. Zero, bu xolatda urbanizatsiya tezlashadi va atrof-muhitga bosimni oshiradi. Ushbu jarayonda ekologik madaniyatsiz urbanizatsiya tabiat degradatsiyasiga va ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadi. “Yashil shaharlar” va “barqaror urbanizatsiya” konsepsiyalari bu yo‘nalishda asosiy dasturlar hisoblanadi. Ekologik madaniyat urbanizatsiyada shahar infratuzilmasi, yashil zonalar, qo‘shni hududlarni muhofaza qilish va transport tizimlarini ekologik jihatdan rivojlantirish bilan uyg‘unlashtiriladi. Innovatsion texnologiyalar va “aqlli shahar” konsepsiyasi orqali urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish mumkin. Bu orqali energiya samaradorligi, atrof-muhit monitoringi, qulay yashash muhitini tashkil etish imkoni paydo bo‘ladi. Shaharlar uchun ekologik bilim va innovatsiyalar aholi uchun zamonaviy infratuzilma, sog‘lom hayot muhiti va resurslarni tejash imkoniyatini ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda shaharlarda ekologik madaniyat pastligi ijtimoiy masofa, individualizm va madaniy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, urbanizatsiya jaryonida ekologik madaniyatni rivojlantirish strategiyalari sifatida quyidagilar namoyon bo‘lmoqda.

1. Shahar infratuzilmasini ekologik jihatdan rivojlantirish.
2. Qulay yashash muhiti, yashil zonalar va atrof-muhitni muhofaza qilish.
3. Innovatsion texnologiyalar va “aqlli shahar” konsepsiyasini keng joriy etish.
4. Atrof-muhit haqidagi ta’lim va madaniy tarbiyani kuchaytirish.

Ekologik madaniyat nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki inson ma’naviyati va jamoaviy hamjihatlikni rivojlantirishni ham qamrab oladi. Tan olish joizki, shaharlar taraqqiyoti bilan birga, qator ekologik tahdidlar yuzaga keladi. Bunda havoning ifloslanishi, suv resurslariga bosim, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillik kuzatilish ehtimoli mavjud.

Shaharlardagi ekologik tahdidlar nafaqat atrof-muhitga, balki aholi sog‘lig‘i va iqtisodiy faoliyatga ham ta’sir qiladi. Urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatning pastligi sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatadi, barqaror iqtisodiy rivojlanishni cheklaydi hamda jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Ekologik madaniyat urbanizatsiyada shahar aholisi uchun sog‘lom hayot muhitini ta’minlaydi. Qulay yashash muhitini shakllantiradi. Jamiyatda ma’naviy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqsak, “oliy ta’lim muassasalari talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish davr talabidir. Zero, o‘z Vatani farovonligi, shahrining obodligi uchun kurashish kelajakda xalqimizning iqtisodiy-madaniy turmushini yanada yaxshilashga xizmat qiladi” [4;23-b.]. Ekologik madaniyatni rivojlanitirish shaharlarda yashil zonalar, qulay transport tizimi, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish ekologik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham ekologik madaniyatni rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

“Qishloq aholi punktlari aholisining shaharlarga ko‘chishi uchun ish o‘rinlaridan tashqari, yashash sharoitlari – uy-joy, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta’minoti, oqava suv tizimlari, telekommunikatsiya infratuzilmasi hamda jamoat transporti kabi zarur qulayliklar yaratilishi lozim” [5;22–24-b.]. Urbanizatsiya jarayoni nafaqat aholi ko‘chishi va shahar infratuzilmasini rivojlantirish, balki insonning tabiat va jamiyat bilan munosabatini qayta tartibga solish jarayoni sifatida ham ahamiyatlidir. Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya tez sur’atda rivojlanmoqda. Bu jarayonda ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki inson hayoti sifati va barqaror taraqqiyotni ta’minlash uchun ham muhimdir.

Ekologik madaniyat insonning tabiat bilan hamjihatligi, resurslardan oqilona foydalanishi va atrof-muhitni muhofaza qilish qobiliyatidir. Urbanizatsiyada ekologik madaniyatning ahamiyatini falsafiy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida uni rivojlantirish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish lozim. Ta’kidlash joiz, shaharlar taraqqiyoti bilan birga, qator ekologik tahdidlar yuzaga keladi. Bu tahdidlar nafaqat atrof-muhitga, balki inson hayoti sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatning pastligi quyidagilarga olib kelishi mumkin:

–aholi sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi;

–barqaror iqtisodiy rivojlanishni cheklaydi;

– jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Ekologik madaniyat insonning tabiat va atrof-muhit bilan hamjihatligi, resurslardan oqilona foydalanishi va atrof-muhitni muhofaza qilish qobiliyatidir. Yuqoridagi muammolardan ma’lum bo‘ladiki, “biz iqtisodiy loyihalarni, birinchi galda, mintaqaning boy tabiiy zaxiralaridan, energetika va suv manbalaridan foydalanish, transport kommunikatsiyalari, gaz va neft tarmoqlarini barpo etish, ekologik muammolarni hal qilish kabi sohalarga tegishli aniq loyihalarni yaratish va amalga oshirish borasida kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirishimiz lozim” [6;118-b.].

Falsafiy jihatdan ekologik madaniyat bu shaxsning ma’naviy mas’uliyati, jamoaviy hamjihatligi va tabiat bilan uyg‘unligi jarayonidir. Urbanizatsiyada ekologik madaniyat insonning nafaqat shaxsiy, balki global darajadagi mas’uliyati bilan bog‘liq. Ta’kidlash joiz, ekologik madaniyat urbanizatsiya jarayonida shahar aholisi uchun sog‘lom hayot muhitini ta’minlaydi, qulay yashash muhitini shakllantiradi, jamiyatda ma’naviy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Shunday ekan, aholi orasida ekologik bilim va madaniy tarbiyani oshirish urbanizatsiyada ekologik madaniyatni mustahkamlaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa. Urbanizatsiya jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti, aholi hayoti sifati va atrof-muhit muhofazasi uchun asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Buning uchun infratuzilmani ekologik jihatdan rivojlantirish, qulay yashash muhiti, yashil zonalar va atrof-muhit muhofazasi, innovatsion texnologiyalar va “aqlli shahar” konsepsiyasini keng joriy etish, ekologik ta’lim va madaniy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyat, nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki inson ma’naviyati va jamoaviy hamjihatlikni rivojlantirishning asosiy omilidir. Urbanizatsiyada ekologik madaniyatni rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti, aholi hayoti sifati va atrof-muhit muhofazasi uchun asosiy yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Moreno R., Lopez-Bazo E. Returns to Local and Transport Infrastructure under Regional Spillovers. International Regional Science Review. 2007, 30, p. 47–71.

(2). Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., “O‘zbekiston”, 2000, 196–197-betlar.

(3). Моргунов Я.В., Мамаев С.М. Развитие городов через призму качества жизни населения. Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2017, № 38, с. 26–42.

(4). Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi. T., «Iqtisod-moliya», 1996, 23-bet.

(5). Shvesov A.N. Polyarizatsiya urbanisticheskogo prostranstva: osobennosti rossiyskogo protsessa v kontekste mirovыx tendensiy. Regionalistika. T. 4, № 5, c. 22–24.

(6). Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. T., «O‘zbekiston», 2009, 118-bet.

Камолиддинова Иродабону Шавкат кизи (Андижанский филиал Кокандского университета, ассистент кафедры клинических наук, направление стоматологии; e-mail: irodabonu.Kamoliddinova@gmail.com; ORCID iD: 0009-0007-7030-974X)

ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕНТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование валеологической компетентности студентов немедицинских высших учебных заведений как актуальная педагогическая проблема. Актуальность темы обосновывается тем, что в нормативно-правовых документах Республики Узбекистан и государственных стандартах высшего образования отсутствует единое и чёткое определение понятия «валеологическая компетентность», а также не установлены требования к уровням её сформированности в зависимости от уровня подготовки студентов. Кроме*